JAHON ILM-FANI, TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARI YUTUQLARINING BANK MARKETINGIDAGI AHAMIYATI

Тухтабаев Абдурашид Турсунович
кандидат экономических наук, профессор. Профессор кафедры “Менеджмент”
Андижанского государственного технического института
https://doi.org/10.5281/zenodo.20780936

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jahon ilm-fani, raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlarning bank marketingi tizimiga ta’siri tahlil qilingan. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), mashinali o‘qitish, blokcheyn texnologiyasi, internet-banking, mobil banking, bulutli hisoblash va raqamli ekotizimlardan foydalanish orqali bank xizmatlari sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojlarini aniqlash va raqobatbardoshlikni ta’minlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston bank tizimida mazkur texnologiyalarni joriy etishning istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *bank marketingi, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, Big Data, fintex, blokcheyn, CRM, mashinali o‘qitish, mobil banking, innovatsion texnologiyalar.*

Кириш

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimi faoliyatida marketingning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank xizmatlarini yaratish, targ‘ib qilish va iste’molchilarga yetkazish jarayonlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda bank marketingi nafaqat an’anaviy reklama va mijozlarni jalb qilish vositasi, balki innovatsion texnologiyalar asosida mijozlar ehtiyojlarini aniqlash, ularga yakka tartibda xizmatlar taklif etish hamda raqobatbardoshlikni ta’minlashning muhim mexanizmiga aylanmoqda.

XXI asrda ilm-fan, texnika va texnologiyalar rivojlanish sur’atlari insoniyat tarixidagi eng yuqori darajaga yetdi. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi, sun’iy intellekt, blokcheyn, katta ma’lumotlar, bulutli hisoblash, robototexnika va boshqa innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi barcha iqtisodiy tarmoqlar qatori bank-moliya sektorining ham faoliyatini tubdan o‘zgartirmoqda. Zamonaviy banklar endilikda nafaqat moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi muassasa, balki ilg‘or texnologiyalar asosida faoliyat yurituvchi raqamli platformalarga aylanmoqda.

Asosiy qism.

Jahon ilm-fani va texnologiyalaridagi eng so‘nggi yutuqlar bank marketingi strategiyalarini ishlab chiqish, mijozlarga yo‘naltirilgan xizmatlarni takomillashtirish, raqamli kanallarni rivojlantirish va bozor raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli zamonaviy texnologik innovatsiyalarni o‘rganish va ularni bank marketingi amaliyotiga tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda dunyoda ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatga investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshib bormoqda. Raqamlashtirish, avtomatlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalari iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlariga aylandi.

Zamonaviy texnologik rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- Sun’iy intellekt (Artificial Intelligence);

- Mashinaviy o‘qitish (Machine Learning);
- Katta ma’lumotlar (Big Data);
- Bulutli hisoblash (Cloud Computing);
- Blokcheyn (Blockchain);
- Robototexnika;
- Kvant hisoblash texnologiyalari;
- Biotexnologiyalar;
- Internet of Things (IoT);
- 5G va 6G aloqa texnologiyalari.

Mazkur texnologiyalar iqtisodiyotning barcha sohalarida, jumladan bank va moliya sektorida yangi biznes modellarni shakllantirmoqda.

Jumladan, **sun’iy intellekt (SI)** inson tafakkuriga xos bo‘lgan funksiyalarni kompyuter tizimlari orqali amalga oshirish imkonini beruvchi texnologiyalar majmuasidir. Uning bank tizimidagi asosiy imkoniyatlariga quyidagigi yonalishlarni kiritish mumkin, yani mijozlar xatti-harakatlarini prognozlash, kredit risklarini baholash, firibgarlik holatlarini aniqlash, chat-botlar va virtual yordamchilar yaratish hamda marketing kampaniyalarini avtomatlashtirish.

Bank marketingida sun’iy intellekt shaxsiylashtirilgan reklama takliflarini yaratish, mijozlarning ehtiyojlarini aniqlash, sotuvlarni prognoz qilish va segmentatsiyani takomillashtirish kabi vazifalarni amalga oshiradi. Bular o’z navbatida marketing xarajatlari qisqarishiga va xizmatlar sifati oshishiga xizmat qiladi.

Ushbu sohada 2026 yil may oyida Samarqandda bo’lib o’tgan Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig’ilishidagi nutqida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev tomonidan bank tiazimiga jahon ilm-fani, texnika va texnologiyalarini joriy qilish yuzasidan “Osiyo taraqqiyot banki shafeligida Rivojlanayotgan mamlakatlarda sun’iy intelekt ko’lamini oshirish bo’yicha alohida dastur ishlab chiqish, shuningdek bankning “Osiyo uchun raqamli magistral” tashabbusiga qo’shilishimizni ma’lum qilamiz hamda Toshkentda uning mintaqqaviy muvofiqlashtirish markazini ochish taklifini ilgari suramiz”[2].

Zamonaviy texnologiyalardan yana biri – katta hajmdagi, tezkor va turli formatdagi ma’lumotlarni qayta ishlash bo’yicha **Big Data** texnologiyasidir. Big Data bank marketingida mijozlar segmentatsiyasini aniqlash, marketing kampaniyalarini optimallashtirish, talab prognozlarini shakllantirish hamda mijozlarni ushlab qolish strategiyalarini ishlab chiqish kabi vazifalarni bajaradi.

Blokcheyn – markazlashmagan ma’lumotlar bazasi bo‘lib, unda ma’lumotlar bloklar ko‘rinishida saqlanadi va o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Uning afzalliklari ma’lumotlarning shaffofligini, xavfsizligini, o‘zgartirib bo‘lmasligini, tezkorligini va xarajatlarning kamayishini ta’minlashdan iborat. Bank tizimida blokcheyn quyidagilar – xalqaro pul o‘tkazmalari, smart-kontraktlar, raqamli identifikatsiya va Markaziy bank raqamli valyutalari (CBDC) uchun qo‘llaniladi. Xozirda Blokcheyn texnologiyasi moliyaviy xizmatlarning samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda.

Bulutli texnologiyalar va raqamli transformatsiya. Bulutli hisoblash (Cloud Computing) ma’lumotlarni internet orqali saqlash va qayta ishlash imkonini beradi. Ularning afzalliklari – xarajatlarni kamaytirish, moslashuvchanlik, tezkor joriy etish, ma’lumotlar xavfsizligi va masofadan ishlash imkoniyatini yaratishdan iborat[7]. Banklar bulutli platformalar yordamida CRM tizimlarini boshqaradi, marketing ma’lumotlarini tahlil qiladi, mijozlarga onlayn xizmat ko‘rsatadi hamda raqamli mahsulotlarni tez ishlab chiqadi.

Iternet of Things (IoT) va aqlli tizimlar. Internet of Things (IoT) internetga ulangan qurilmalar tarmog‘I bo’lib, ularga aqlli telefonlar, aqlli soatlar, sensorlar, aqlli transport tizimlari va aqlli uy texnologiyalari kiradi. Bank marketingida IoTlar mijozlarning iste’mol odatlarini o‘rganadi, geolokatsion marketingni rivojlantiradi, real vaqt rejimida xizmatlar taklif etadi. Bular esa bankda marketing samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[3].

Kiberxavfsizlik texnologiyalarining zamonaviy yo‘nalishlari. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan kiberxavfsizlik masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy kiberxavfsizlik vositalariga biometrik autentifikatsiya, ko‘p faktorli identifikatsiya, kriptografik himoya, sun’iy intellekt asosidagi monitoring hamda xavfsizlik operatsion markazlari (SOC) kiradi. Banklar uchun kiberxavfsizlik – bu mijozlar ishonchini oshiradi, firibgarliklarni kamaytiradi, shuningdek ma’lumotlar himoyasini ta’minlaydi.

FinTech innovatsiyalar. FinTech – moliyaviy xizmatlar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasidan tashkil topgan sohadir. FinTechning asosiy yo‘nalishlariga mobil to‘lovlar, elektron hamyonlar, P2P kreditlash, Crowdfunding, Robo-maslahatchilar hamda Open Banking kiradi. FinTech kompaniyalari bank sektorida raqobatni kuchaytirib, xizmatlar sifatini oshirishga sabab bo‘lmoqda. Bank marketingida FinTech innovatsiyalar yangi mijozlarni jalb qiladi, raqamli kanallarni rivojlantiradi, marketing xarajatlarini qisqartiradi hamda mijozlar tajribasini yaxshilaydi[6].

O‘zbekiston bank tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish istiqbollari. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot va bank sektorini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kelgusida quyidagi texnologiyalar keng joriy etilishi kutilmoqda[5]:

- Sun’iy intellekt asosidagi bank xizmatlari;
- Open Banking tizimi;
- Raqamli identifikatsiya;
- Bulutli bank platformalari;
- Blokcheyn asosidagi moliyaviy xizmatlar;
- Markaziy bank raqamli valyutasi;
- Biometrik autentifikatsiya.

Mazkur texnologiyalar banklarning raqobatbardoshligini oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

2025-yil 26-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Hozirgi global iqtisodiyotda raqobatga chidamli bo‘lish uchun malakali kasb egalari va mutaxassislar, zamonaviy texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutmaslik lozim. Agar biz ... IT, sun’iy intellekt, fintex, konsalting, transport-logistika kabi ... ilg‘or xorijiy tajribalarni keng joriy etish uchun yangi texnologiyalarni olib kirsak, kadrlarni ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan zamonaviy kasblarga tayyorlasak, kelgusi besh yilda iqtisodiyotimiz hajmini 240 milliard dollardan oshirishga barcha imkoniyatlarimiz bor. Bu borada ustuvor yo‘nalishimiz – iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazishdan iborat”. Shuning uchun iqtisodiyotning barcha sohalarida yuqori samaradorlikka erishish – kelgusida islohotlarimizning bosh mezoni bo‘lishi shart”[1].

2025-yili mamlakatimizda IT xizmatlari eksporti 1 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2030-yilga borib, IT xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha ustuvor vazifa belgilab olindi.

Shu maqsadda jahon bozorida raqobatdoshligini oshirish uchun Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi tashkil etildi, IT infratuzilmasiga investitsiya kiritish uchun bir qancha imtiyozlar ko‘zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, Markaziy bankda Fintex ofisi va Innovatsion xab tashkil etilib, unga Singapurdan mutaxassislar jalb qilinadi. Bu orqali yiliga 20–30 ta fintex startapni tashqi bozorga olib chiqish, ularga jami 1 milliard dollar investitsiya jalb etish imkoniyati yaratiladi.

Umuman, venchur fondlar, startaplar, fintex kabi yangi moliyaviy instrumentlar bozorini rivojlantirish, bu sohadagi barcha ishtirokchilar huquqlarini qonun bilan kafolatlab qo‘yish zarur. Buning uchun parlamentimiz hukumat bilan birgalikda “Muqobil investitsiya jamg‘armalari to‘g‘risida”gi qonun loyihasini 1-martgacha ishlab chiqsa, ayni muddao bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sun’iy intellekt ta’sirida dunyoda ish o‘rinlarining soni, shakli va mazmuni keskin o‘zgarmoqda. Mutaxassislarning fikricha, yaqin besh yilda mavjud kasblarning 30 foizi to‘liq avtomatlashtiriladi, 50 foizi bo‘yicha esa yangi malakalar talab qilinadi.

Endi mamlakatimizning mehnat bozori mutlaqo yangi arxitektura asosida – kasb, malaka, texnologiya va ta’limni birlashtiradigan yagona mexanizm sifatida ishlashi ta’minlanishi zarur.

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan global o‘zgarishlar, xalqaro bozorlardagi tebranishlar, texnologiyalarning keskin rivojlanishi yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Bular o‘z navbatida bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish hamda jahon ilm-fan, texnika va texnologiyalarining eng so‘nggi yutuqlarini bank tizimida qo‘llashni talab etmoqda.

Xulosa

Jahon ilm-fani, texnika va texnologiyalarining so‘nggi yutuqlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlari qatori bank-moliya sektorida ham tub o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Sun’iy intellekt, Big Data, blokcheyn, bulutli texnologiyalar, IoT va FinTech innovatsiyalari bank marketingining mazmuni va usullarini yangilab, mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli xizmatlar ko‘lamini kengaytiradi.

Zamonaviy texnologiyalar banklarga marketing xarajatlarini kamaytirish, xizmatlar sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojlarini chuqurroq o‘rganish va raqobatbardoshlikni mustahkamlash imkonini beradi. Shu sababli innovatsion texnologiyalarni bank faoliyatiga samarali integratsiya qilish banklarning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – Toshkent 26 dekabr 2025y.
2. Sh. Mirziyoyev. Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig‘ilishidagi nutqi. – Camarqand 04 may 2026y
3. Bank Marketing. Cengage Learning, 2021.
4. Philip Kotler. Marketing Management. Pearson, 2022.
5. World Bank. World Development Report: Digital Transformation, 2024.
6. Bank for International Settlements. Annual Economic Report, 2024.
7. MIT Technology Review
8. World Bank Open Knowledge Repository
9. OECD Digital Economy Publications